

**NOFILOLOGIK TA'LIM TALABALARINING IMLOVIY
SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA TARJIMA ASARLARINING
LINGVISTIK VA ILMIY AHAMIYATI**

Oxunjonova Faxriniso

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kun o'zbek adabiyotining dolzarb muammosi tarjimachilik, uning imlo va uslubiy savodxonlikka ta'siri haqida so'z yuritiladi. Tarjimachilikning asosiy tendensiyalaridan biri bo'lgan til grammatikasining turli xalqalar tiliga oid qonun - qoidalar bilan bog'liqligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Tarjima, tarjimashunoslik, sotsiolingvistika, Averchenko, "O'tkan kunlar", muammo, problema

Abstract: This article talks about the current problem of today's Uzbek literature- translation, its impact on spelling and stylistic literacy.

Keys words: Translation, translation studies, sociolinguistics, Averchenko, problem

Kirish. Badiiy asar o'zining poetikasi va unda ko'tarilgan problemaning dolzarbligini bilan belgilanadi. Asarda berilgan problemaning ahamiyati birgina xalq yoki bitta jamiyatning asosiy tendensiyasini belgilab bermaydi. Yozuvchi tomonidan tasvirlangan har bir jihat- muammo, kompozitsiya va konfliktlar umumilliylik kasb etadi. Shuning uchun o'zbek o'quvchisi Oskar Uayldning qahramonlari bilan "suhbatlashgan"da uning dardi bilan yashaydi, ingliz esa Kumushning dilbarligidan hayratlanadi. Bunda asosiy jihat tarjimonning mahorati bilan o'lchanadi.

Tarjima asarlar u xoh badiiy, xoh ilmiy bo'lsin, avvalo, tarjimonning badiiy saviyasini ochiqalaydi. Boisi badiiy jihatdan eng yuksak asarlar ham, tarjimon qalami ostida "ranglar jilo"sini yo'qotishi mumkin. Tarjimondan bir asarni boshqa tilda qayta "yaratishi" uchun faqatgina o'sha tilni bilish imkoniyatining yuqori ekanligini o'zi yetarli omil bo'la olmaydi. Zero ikki tilli lug'atlar juda mukammal tuzilgan

bo'lsa ham, badiiy asarning badiiy pafosini ochib bera olmasligi, ilmiylikni mutlaqo noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodlari. Hozirgi adabiyotshunoslikda tarjimaning bir necha turi mavjud bo'lib, tarjima mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'lingan:

- badiiy tarjima- badiiy asarlar tarjimasi;
- ilmiy tarjima- ilmiy matn, asarlar tarjimasi
- publitsistik tarjima- siyosiy-publitsistik asarlar tarjimasi
- rasmiy tarjima-rasmiy idora hujjatlar tarjimasi.¹

Barcha tarjima turlarida orginallikni saqlash biroz mushkul vazifa. Shunday ekan, so'zlarni to'g'ri tanlash yoxud atamalar imlosiga e'tiborli bo'lish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarjimaning asosiy sistemaviy birligi sifatida nutqning ham, tilning ham birliklari beriladi. Biroq bu fikrda biroz g'alizlik bordek. Xususan, tarjima birliklari o'zgaruvchandir, ayrim o'rinlarda til birligining yolg'iz o'zi ko'zlangan maqsadni bera oladi. Ya'ni, bitta so'z bir necha so'zni o'rniga bemalol qo'llanishi mumkin:

barrel o'q otar qurolning bir qismi - stvol²

Tarjimachilikning asosiy muammolaridan biri va imlo xatolarga yuzaga keltirayotgan muammolardan biri tillarning Grammatik qoidalarining turlichaligidir. Grammatik tafovutlarning mavjudligi imlo savodxonligiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillardan biridir.

Har bir tarjimon, avvalo, badiiy asar kompozitsasini orginal tilda o'qib- anglab olish bilan birga tarjima nazariyasiga oid bilimlar haqida ko'nikma shakllantirib olmog'i darkor. Sababi tarjimashunoslik qiyosiy tilshunoslikdan tubdan farq qiladi. Qiyosiy tilshunoslikning va tarjima nazariyasining o'rganish obyekti bir-biriga juda yaqin, ammo tarjima nazariyasida so'zlarning ma'no birliklari asosiy manba hisoblansa, qiyosiy tilshunoslikda so'zlarning semantik aspekti ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

¹ Ochilov E. Badiiy tarjima masalalari.- Toshkent. 4- bet

² Isakova Sh. Tarjima nazariyasi o'quv qo'llanma.- Qo'qon. 2020. 35- bet

Tarjimachilik lingvistika bilan juda yaqin aniqroq qilib aytganda, uzviy bog‘liq sohalardir. Tarjima nazariyasi tilshunoslikning yetakchi sohalaridan biri hisoblangan sotsiolingvistika bilan uzviy bog‘liq³. Lekin sotsiolingivistikaning asosiy predmetlaridan- tilning jamiyatdagi turli darajadagi o‘zgarishlar, neologizmlar, sotsial chegaralangan so‘zlarning semantik yangiliklaridan keng ko‘lamda foydalanadi.

Tarjimashunoslik bo‘yicha tahlillar o‘rganilganda, tarjimaga faqatgina zaruriyat deb qarash holati mavjudligi kuzatildi. Biroq tarjima faqatgina ehtiyoj yuzasidan uchun emas, badiiy san‘at vositasi deb qarash maqsadga muvofiq. Shunday ekan, til bilish- tarjimaning eng asosiy bosqichi deb hisoblanadi.

Muhokama va natijalar. Tarjima qilish bo‘yicha adabiyotshunoslikda xil qarash ilgari suriladi: birinchi tarjimonlar hamma narsani boshqa tilga hech qanday qiyinchiliklarsiz o‘girishi mumkin, ikkinchi toifa esa bu masala yuzasidan “Adabiyot- hayotning in‘ikosi”, deb qarashib, “badiiy adabiyot ham hayotdek xilma-xilligiga asoslanadi” degan fikrni bildirishadi. Asar tarjimasida madaniyatlarning turlichaligi ham badiiy tarjimaning imkoniyati faqat lingvistik qoidalargagina bo‘ysunmasligini ko‘rsatadi.

Tarjima jarayonida shunday so‘zlar ham borki, ularni aynan butun semalari bilan boshqa tilga o‘girish mutarjimdan katta mahorat talab etadi. Chunonchi birgina rus yozuvchisi Arkadiy Averchenkoning “Жвачка (Saqich)” hikoyasining ushbu jumlasida tarjimonning mahorati juda ham katta rol o‘ynagan: “Чехов был поэтом сумерек, изобразителем безвольной интеллигенции...” – “Чехов qorong‘ulik shoiri, irodasiz ziyolilar kuychisi...” Aslida, aynan tarjima lug‘atlarda “сумерки- choshgoh”, “поэт- shoir”, “изобретатель-ixtirochi” kabi izohlangan. Endi bu so‘zlarni o‘z holicha ifodalaganda hikoya yozuvchisining maqsadi o‘zbekzabon o‘quvchi uchun mavhumiy tushuncha anglatishi mumkin. Shuningdek, bu mushohada badiiy asar nomlarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

“O‘tkan kunlar” romani nomi ingliz tilida “o‘tgan” degan so‘z “past” so‘zi bilan ifodalanadi, biroq “o‘tgan kun” “last day” deb so‘zma- so‘z tarjima qilinadi.

³ G‘ofurov I. va b. Tarjima nazariyasi –Toshkent. 112-b.

Tarjimada esa “Bygone days” tarzida berilgan. Bu tarjimonning xatosi yoki lingvistik g‘alozlik deyish mutlaqo noo‘rin. Boisi har bir so‘z o‘zining badiiy pafosiga egadir.

Aslida, lingvistik qoidalar tartibga, maqsadni aniq ifodalashga yoki omma uchun tushunarlikka asos bo‘lib xizmat qiladi. Lekin tarjima asarlarda tilshunoslik qonun- qoidalariga bo‘ysunish badiiy asar qimmatini tushishiga olib kelishi mumkin. Mazkur jihat bir qarashda imlo savodxonligiga yoki so‘zlarni uslubiy noo‘rin qo‘llashga olib kelishga sabab vositasini bajaradigandek tuyulishi mumkin. Ta’kidlash kerakki, til va adabiyot chambarchas bog‘liq. Shu asosida imlo savodxonligini oshirishda yuksak mas’uliyat yana tarjimon zimmasiga yuklanadi. Barcha tarjima turlarida orginallikni saqlash biroz mushkul vazifa. Shunday ekan, so‘zlarni to‘g‘ri tanlash yoxud atamalar imlosiga e’tiborli bo‘lish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, “ягода” so‘zini ayrim tarjimonlar “reza mevalar”, boshqa tur tarjimonlar “rezavor mevalar” deb tarjima qilgan. Bu o‘quvchi uchun noqulayliklar yuzaga keltirishi tabiiy. Aslida “reza” so‘zi “mayda, uncha katta bo‘lmagan” ma’nolarini beradi. “Rezavor” so‘zining ham ma’nosi “mayda”, semasini o‘zida aks ettirgan. Ahamiyatlisi shuki, o‘zbek tili qoidalarida “reza” so‘zi mevaga nisbatan qo‘llash noo‘rin. Sababi, so‘z tarkibidagi “vor” grammatik birligida asosiy ma’no ifodalovchi jihat mavjud. Grammatik jihatdan ham tarjimachilikdagi kamchiliklar imlo va uslubiy savodxonlikka ta’sir qiladi.

Chunonchi turk tilida “yurt” so‘zi mavjud bo‘lib, unga kelishiklar qo‘shilganda, turk tili grammatikasi bo‘yicha “yurda” shakliga o‘zgaradi. Yana bir kelishik shakli qo‘shilganda, “yurta” tarzida ifodalanadi. Mazmunan ham turlicha ma’no anglatadi. Bu jihat o‘zbekchalashtirilayotganda alohida ahamiyat kasb etilishi lozim. Tarjimada har bir tilning morfologik jihatini inobatga olish “yangilanayotgan yoki qayta jonlanayotgan” asarning badiiy saviyasini ochishda, imloviy savodxonligini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Qaysi xalq tili bo‘lishidan qat’iy nazar o‘sha tilning madaniyatini, qadriyatlarini ifodalovchi so‘zlar mavjud. Bunday so‘zlarni tarjimada asl holicha

saqlab qolish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, “Holli”, “Paxsa”, “Blinita” kabilar

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ijtimoiy tarmoqlarda, kitobxonlik jamiyatlarida tarjimonlarning ishida kuzatilyaptiki, adabiy uslublar doirasida so‘zlarning ma’no atkalariga e’tiborsizlik yoki chalkashliklarga umuman ahamiyat bermaslik. Bu qaysidir ma’noda uslubiy va imlo savodsizligiga olib kelmoqda. Ma’lumki, “o‘zbekcha”lashtirilayotgan asarlarning 60% rus tilidan o‘giriladi⁴, hattoki Yevropa adabiyot namunalari ham. Shuningdek, badiiy asar mazmunini to‘la ochib berish elektron tarjima orqali ham bajarilmoqda. Bu ulkan yo‘qotish hisoblanadi. Shularni hisobga olib, tarjimashunoslarning ulkan va mukammal jamoasini shakllantirish o‘zbek adabiyotining asosiy muammosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ochilov E. Tarjima nazariyasi.- Toshkent.-2016
2. Isakova Sh. Tarjima nazariyasi (o‘quv qo‘llanma)- Qo‘qon-2020
3. G‘ofurov I. va b. Tarjima nazariyasi –Toshkent- 2014
4. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish- Toshkent-2016.
5. Азимова, З. Э. (2022). Совершенствование системы воспитательной работы на основе интегральной диагностики (на примере высших образовательных учреждений). In *Образование, профессиональное развитие и сохранение здоровья учителя в XXI веке* (pp. 8-18).
6. Азимова, З. Э., Ахмедова, Н. Д., & Бичурина, С. У. Влияние коммуникативных технологий на развитие личностного потенциала ординатора.
7. Азимова, З. Э. (2019). Формирование готовности будущих учителей начальной школы к профессиональной деятельности на основе компетентного подхода в условиях университетских комплексов. in *European research: innovation in science, education and technology* (pp. 54-55).
8. Otaboyeva, Z. Pedagogical peculiarities of studying group solidarity in the student community. Общество с ограниченной ответственностью "Агентство

⁴ Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish- Toshkent-2016. 11-bet.

перспективных научных исследований" КОНФЕРЕНЦИЯ: 28 декабря 2023 года
Организаторы: ООО Агентство перспективных научных исследований (АПНИ).

9. Otaboeva, Z. G. (2023). Organizing pedagogical experimental work for the development of a culture of cooperation in the student community of higher education institutions. *Экономика и социум*, (12 (115)-2), 285-288.

10. Otaboyeva, Z. G. (2020). Die besonderheit der präpositionen der deutschen sprache. In *Развитие науки и высоких технологий как основной источник экономического роста* (pp. 18-20).

11. Otaboyeva, Z. O. (2020). O'smirlarda vatanparvarlik tarbiya jarayonida ulardagi ijtimoiy faollikni keltirib chiqaruvchi omil. *Экономика и социум*, (11 (78)), 301-304.